



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI  
BANK OPERASİYALARI METODOLOGIYASI BOSHQARMASIDA  
RO‘YXATDAN O‘TKAZILDI**

**2020 yil 22 iyun  
557-son**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki  
aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining**

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki  
boshqaruvi to‘g‘risida nizom”ni tasdiqlash haqida”**

**QARORI**



**“TRASTBANK” XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI  
AKSIYADORLARI UMUMIY YIG‘ILISHI  
Q A R O R I**

**““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki  
boshqaruvi to‘g‘risida nizom”ni  
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2000 yil 22 fevraldagi 3/6-son qarori (2000 yil 5 aprel, ro‘yxat raqami 916) bilan tasdiqlangan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida nizom”ga muvofiq “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi **qaror qiladi**:

1. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki boshqaruvi to‘g‘risida nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki kuzatuv kengashining 2019 yil 30 dekabrda 194-son ““Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki boshqaruvi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida” qarori (2020 yil 8 yanvar, ro‘yxat raqami 548) o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Mazkur qaror Bank ichki normativ hujjatlari reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan kunning ertasidan boshlab kuchga kiradi.

**Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi raisi**

**T.Sharipov**

Toshkent shahri,  
2020 yil 12 iyun,  
51-son.

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki  
boshqaruvi to‘g‘risida nizom**

*Mazkur Nizomga quyidagilarga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan:  
Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan  
tasdiqlangan va 570-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat;*

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunlari, Tijorat banklari va ularning filiallari rahbarlari, bosh buxgalterlari, boshqaruv a‘zolari, mikrocredit tashkilotlari hamda kredit byurolarining ijro organlari rahbarlariga nisbatan malaka talablar (*Adliya vazirligida 2018 yil 30 martda 2989-son bilan ro‘yxatga olingan*), Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risida nizom (*Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3252-son bilan ro‘yxatga olingan*), Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida nizom (*Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan*) asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvining maqomi, tarkibi, vakolatlari, ishlash tartibi, Bankning boshqa boshqarish organlari bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek a‘zolarining huquqi, majburiyati va javobgarligini belgilaydi. (*Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi muqaddima*)

**1-§. Umumiy qoidalar**

1. Bank boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning kundalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

Bank boshqaruvi Bankning kuzatuv kengashi va Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishiga hisobot beradi.

2. Bank boshqaruvi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank ustavi, Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi va Bankning kuzatuv kengashi qarorlari, mazkur Nizom va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlariga amal qiladi.

**2-§. Bank boshqaruvi tarkibi, uni tuzish  
va vakolatlarini tugatish**

3. Bank boshqaruvi Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tuziladi va bir yil muddatga

saylanadi.

Bank boshqaruvi a'zolari soni Bank ustaviga ko'ra belgilanadi.

Bank boshqaruvi tarkibiga Bank boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari, bosh buxgalter hamda Yuridik xizmat rahbari kiritiladi. Shuningdek, Bank boshqaruvi tarkibiga Bosh bankning asosiy tarkibiy tuzilmalari rahbarlari kiritilishi mumkin.

Bank boshqaruvi a'ziligiga nomzodlarga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

a) bank boshqaruvi raisi lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod oliy iqtisodiy ma'lumotga, bank-moliya yo'nalishida kamida o'n yillik ish stajiga, shu jumladan kamida besh yil bank tizimida rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi;

b) bank boshqaruvi raisi o'rinbosari lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod oliy iqtisodiy ma'lumotga, bank-moliya yo'nalishida kamida yetti yillik ish stajiga, shu jumladan kamida uch yil bank tizimida rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi;

v) bosh buxgalter lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod oliy iqtisodiy ma'lumotga, bank-moliya yo'nalishida kamida olti yillik ish stajiga, shu jumladan kamida uch yil bank buxgalteriya yo'nalishida rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi;

g) bank boshqaruvi a'zosi lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod oliy iqtisodiy ma'lumotga, bank-moliya yo'nalishida kamida besh yillik ish stajiga, shu jumladan kamida ikki yil bank tizimida rahbarlik lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Bank boshqaruvi a'ziligiga tavsiya etilayotgan Yuridik xizmati rahbari oliy yuridik ma'lumotga hamda bank tizimida kamida uch yillik ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

Bank boshqaruvi a'ziligiga nomzodni Bankning kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun Bank boshqaruvi raisi taqdim etadi.

Bankning kuzatuv kengashi Bank boshqaruvi a'ziligiga nomzodni dastlabki baholashni amalga oshiradi, bunda nomzodning ishchanlik obro'si, tajribasi, bilim va ko'nikmalari, mustaqil mulohaza yuritishi, vaqtining yetarliligi va jamoaviy yaroqliligini "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida nizom" (*Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3252-son bilan ro'yxatga olingan*) va Bankning ichki talablari asosida tekshiradi. Mazkur dastlabki baholash Bankning kuzatuv kengashi tomonidan nomzodni saylash yoki tayinlash to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldin amalga oshiriladi. (*Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan qism*)

Bankning kuzatuv kengashi Bank boshqaruvi a'ziligiga nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib oladi.

Bank boshqaruvi raisi lavozimga Bankning kuzatuv kengashi qarori bilan, keyinchalik Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida tasdiqlash orqali, tayinlanadi. Bank boshqaruvi raisini

tayinlash to'g'risida qaror xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinishi mumkin.

Bank boshqaruvi a'zolariga saylash yig'ilishda qatnashayotgan Bankning kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan berilgan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilingan qaror asosida amalga oshiriladi.

4. Bank boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasi, uni uzaytirish yoki to'xtatish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilingan holda, bir yil muddatga tuziladi. Mazkur shartnomani Bank nomidan Bankning kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

Bank boshqaruvining boshqa a'zolari bilan mehnat shartnomasini Bank boshqaruvi raisi tuzadi.

Bank Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasini Bank boshqaruvi a'zolarining mehnatiga haq to'lashni tashkil etish uchun asos sifatida qabul qiladi. Bank boshqaruvi a'zolariga lavozim maoshi, lavozim maoshiga ustama haq, mukofot, mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofot va kompensatsiyalar belgilash Bank ichki normativ hujjatlari, Jamoa shartnomasi va Tarmoq kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

5. Bank boshqaruvi a'zolari mazkur Nizomda belgilangan vakolatlar, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi qarorlari hamda Bank boshqaruvi raisining ko'rsatmalari doirasida faoliyat yuritadi.

6. Bankning kuzatuv kengashi Bank boshqaruvi raisi va Bank boshqaruvining har bir a'zosi vakolatlarini istalgan paytda tugatishga haqli hisoblanadi.

Bank boshqaruvi a'zolari tomonidan Bank ustavi talablari qo'pol tarzda buzilishi yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilishi ular vakolatini tugatishga asos bo'ladi.

7. Bank boshqaruvi a'zosining Bankda egallagan lavozimdan bo'shatilishi, uning Bank boshqaruvida a'zolarining tugatilishiga olib keladi.

### **3-§. Bank boshqaruvining vakolatlari**

8. Bank boshqaruvining vakolatiga, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalardan tashqari, Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, shu jumladan:

a) Bank ustaviga muvofiq Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashida ko'riladigan masalalarni tayyorlash, bu masalalar bo'yicha tegishli hujjatlar va qarorlarning loyihasini tayyorlash;

b) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etish;

- v) Bankning biznes-rejasida tasdiqlangan miqdorda foyda olinishini ta'minlash;
- g) Bankni rivojlantirish biznes-rejasi ishlab chiqilishiga rahbarlik qilish, uning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;
- d) tasdiqlanishi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilmagan Bank ichki normativ hujjatlarini tasdiqlash;
- e) tasdiqlanishi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan Bank ichki normativ hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va tasdiqlashga taqdim etish;
- yo) Bank xizmatlariga oid tariflarni tasdiqlash;
- j) Bosh bank tarkibiy tuzilmalari, Bankning filiallari va sho'ba korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- z) taftish va tekshirish materiallari, shuningdek Bosh bank tarkibiy tuzilmalari rahbarlari, Bank filiallari va sho'ba korxonalari boshqaruvchilarining hisobotlarini muhokama qilish;
- i) Bankning oylik, choraklik, yillik hisobotlari va buxgalteriya balanslarini muhokama qilish;
- y) Bankning moliyaviy holati, eng muhim dasturlari ijrosi, Bank faoliyatiga muhim ta'sir ko'rsatadigan bitim va qarorlar to'g'risida Bankning kuzatuv kengashiga muntazam ravishda axborot berish;
- k) affillangan shaxs bilan tuzilishi kutilayotgan bitimni Ichki audit departamenti bilan birgalikda o'rganish va o'rganish natijalari haqida bayonnomani Bankning kuzatuv kengashiga taqdim etish;
- l) Bank xodimlari mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish tartibi va shartlarini belgilash;
- m) Bank faoliyatiga oid, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan, boshqa masalalarni hal etish.

9. Bank boshqaruvi Bankning kuzatuv kengashiga muntazam ravishda, biroq bir chorakda kamida bir marta, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishiga bir yilda bir marta Bank faoliyatining holati, rivojlanishning yangi yo'nalishlari, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishi, shuningdek boshqa masalalar to'g'risida hisobot beradi.

#### **4-§. Bank boshqaruvi raisining vakolatlari**

10. Bank boshqaruvi raisi Bank boshqaruvini boshqaradi.

11. Bank boshqaruvi raisining vakolatlari:

- a) Bankning joriy faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;
- b) Bank boshqaruvi majlisini chaqirish va olib borish;
- v) Bank boshqaruvi majlisining kun tartibini belgilash va tasdiqlash;

g) Bank boshqaruvi a'zolariga nomzodlarni Bankning kuzatuv kengashida tasdiqlash uchun taqdim etish;

d) Bank boshqaruvi a'zolarining vakolatini muddatidan oldin tugatish to'g'risida Bankning kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

e) Bankning kuzatuv kengashi yig'ilishi o'tkazilishigacha va Bankning kuzatuv kengashida Bank boshqaruvi a'zolari vakolatini muddatidan oldin to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingungacha Bank boshqaruvining ushbu a'zolari vakolatini to'xtatish;

yo) Bank tomonidan da'vo qo'zg'atilishi, qaytarib olinishi, tan olinishi, tartibga solinishi to'g'risida qarorlar qabul qilish;

j) Bank nomidan shartnomalar, ishonchnomalar, majburiyatlarni imzolash;

z) Bankning barcha xodimlari uchun ijro etilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish, ko'rsatmalar berish;

i) Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatini ifoda etish, bitimlar tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan barcha yuridik harakatlarni amalga oshirish (Bank ustaviga muvofiq Bankning boshqa boshqarish organlari vakolatiga kiritilgan bitimlarni tuzish bundan mustasno);

y) Bank xodimlari mehnat haqisi miqdorini belgilash;

k) Bosh bank va Bank filiallarining shtat jadvallarini tasdiqlash, Bosh bank xodimlari va Bank filiallarining nomenklatura xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzish, ularni lavozimdan ozod qilish, ularga nisbatan taqdirlash va intizomiy jazo choralarini qo'llash, ularning lavozim maoshiga ustama haq belgilash;

l) Bosh bank tarkibiy tuzilmalari to'g'risida nizomlar, Bosh bank xodimlari va Bank filiallari nomenklatura xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;

m) Bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan barcha hujjatlarni imzolash;

n) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ustavida belgilangan doirada Bankning mol-mulki va pul mablag'ini tasarruf etish;

o) Bankning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni belgilash va Bankning joriy faoliyatida maxfiylikka amal qilinishini ta'minlash;

p) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashiga Bankning yillik hisobotini taqdim etish;

r) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Bankning kuzatuv kengashiga foydani taqsimlash va ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan takliflarni taqdim etish;

s) ichki nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishga oid Bank strategiyasi va siyosatining bajarilishini ta'minlash;

t) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi

qarorlarining ijrosi uchun javobgarlikni belgilash;

u) Bank faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ichki normativ hujjatlar talablariga amal qilinishini ta'minlash;

f) Bank boshqaruvi raisi o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

x) Bankning joriy faoliyatini boshqarish bilan bog'liq, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ustavida ko'zda tutilgan, boshqa masalalarni hal qilish va ba'zi funksiyalarni bajarish.

12. Bank boshqaruvi raisi uzrli sababga ko'ra ishda bo'lmagan (xizmat safari, mehnat ta'tili, kasallik, o'z hisobidan ta'tilda bo'lgan) paytda, shuningdek Bank boshqaruvi raisi o'z funksiyalarini bajara olmaydigan ba'zi hollarda, uning funksiyasini Bank boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

### **5-§. Bank boshqaruvi majlisini o'tkazish**

13. Bank boshqaruvi majlislari zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

14. Bank boshqaruvi majlisida muhokama qilinadigan masala bo'yicha taklifni Bank boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari, Bank boshqaruvining boshqa a'zolari, Bankning kuzatuv kengashi, Bankning kuzatuv kengashi raisi, Bank taftish komissiyasi raisi (Bank taftishchisi), Bosh bank tarkibiy tuzilmalari rahbarlari va Bank filiallari boshqaruvchilari kiritishga haqli hisoblanadi.

15. Bank boshqaruvi majlisi Bank boshqaruviga saylangan a'zolarining 50 foizidan ortig'i qatnashganda o'tkaziladi (kvorum).

16. Bank boshqaruvi majlisida qaror majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank boshqaruvi majlisida masala hal etilayotganda Bank boshqaruvining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Bank boshqaruvining bir a'zosi o'z ovoz berish huquqini Bank boshqaruvining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bank boshqaruvi qarorining Yuridik xizmat rahbari imzosisiz qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar Yuridik xizmat rahbari uzrli sabab (xizmat safari, mehnat ta'tili, o'quv ta'tili, ish haqi saqlanmagan holda ta'til, kasallik) tufayli Bank boshqaruvi majlisida qatnashmasa, Bank boshqaruvi qarori loyihasining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan Bosh bankning Yuridik xizmat departamenti tomonidan huquqiy xulosa beriladi.

17. Bank boshqaruvi majlisida bayonnoma yuritiladi va unda quyidagilar qayd etiladi:

a) Bank boshqaruvi majlisi o'tkazilgan sana;

b) majlisda hozir bo'lgan Bank boshqaruvi a'zolarining shaxsiy tarkibi;

v) Bank boshqaruvi majlisiga taklif etilgan shaxslar;



g) Bank boshqaruvi majlisida muhokama qilinadigan masalalar;

d) Bank boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlar.

Bayonnomada, shuningdek, boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlar aks ettirilishi mumkin.

18. Bank boshqaruvi majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan va ishtirok etgan Bank boshqaruvi a'zolari tomonidan imzolanadi.

19. Bank boshqaruvi majlisining bayonnomasi varaqlari raqamlangan va ip o'tkazib tikilgan, Bank boshqaruvi raisi o'rinbosari hamda bayonnomalarni ro'yxatdan o'tkazuvchi Bosh bankning Strategik rivojlantirish departamenti rahbarining imzolari va asosiy muhr bilan tasdiqlangan maxsus jurnalda ro'yxatdan o'tkaziladi.

20. Bank boshqaruvi majlisi bayonnomasining nusxasi (bayonnomadan ko'chirma) quyidagilarga beriladi:

a) Bankning kuzatuv kengashi raisi va Bank taftish komissiyasi raisiga (Bank taftishchisiga), ularning talabiga ko'ra;

b) Bosh bank tarkibiy tuzilmalari rahbarlari va Bank filiallariga, agar ko'rilgan masalalar ularga funksional jihatdan daxldor bo'lsa;

v) boshqa mansabdor shaxslar va auditorning so'rovi bo'yicha, faqat Bank boshqaruvi raisining ruxsati bilan;

g) boshqa shaxslar va organlarga (shu jumladan davlat organlariga), O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

21. Bosh bankning Strategik rivojlantirish departamenti Bank boshqaruvi majlisining kun tartibidagi masalalar bo'yicha hujjatlarni to'playdi (yig'adi) va ularni Bank boshqaruvi majlisiga kiritadi, Bank boshqaruvi majlislari bayonnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi va saqlaydi, Bank boshqaruvi qarorlari ularni bajarish uchun mas'ul bo'lgan Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va Bank filiallariga o'z vaqtida yetkazilishi uchun javob beradi.

#### **6-§. Bank boshqaruvi va uning a'zolarining huquq va majburiyatlari**

22. Bank boshqaruvi a'zolari Bank aksiyadorlari va Bank kuzatuv kengashining ishonchli vakillari bo'lib, o'zlarining huquqini amalga oshirishda va majburiyatini bajarishda Bank va uning aksiyadorlarining manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'yishi lozim.

Bank boshqaruvi a'zosi o'z faoliyatini amalga oshirayotganda mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilishi hamda sodiqlik bilan xizmat qilishi lozim. *(Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan qism)*

Bank boshqaruvi a'zosining javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilishiga quyidagilar

kiradi:

a) qarorlarni ongli ravishda qabul qilish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, shu jumladan, qarorlarni o'z vakolatlari doirasida va mavjud ma'lumotlarni har tomonlama baholagan holda qabul qilish;

b) xizmat vazifalarini bajarishga mas'uliyat bilan yondashish;

v) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank ustavi va Bank ichki hujjatlari talablariga rioya qilish.

*(Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan qism)*

Bank boshqaruvi a'zosining Bankka sodiqlik bilan xizmat qilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) o'zi bilan bog'liq barcha mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish;

b) o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaati yo'lida foydalanmaslik;

v) manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda va Bank manfaati yo'lida o'z vazifalarini to'laqonli bajarishiga to'sqinlik qilgan taqdirda, qaror qabul qilishda qatnashmaslik.

*(Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan qism)*

23. Bank boshqaruvi a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

a) Bank boshqaruvi majlisi kun tartibi muhokamasiga masala kiritish;

b) Bank faoliyatining ma'lum bir davrdagi faoliyati natijalari to'g'risida, uni rivojlantirish rejasi haqida Bosh bank tarkibiy tuzilmalari va Bank filiallaridan to'liq va ishonchli ma'lumot olish;

v) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank ustavi, Bank ichki normativ hujjatlari va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq boshqa huquqlar.

24. Bank boshqaruvidan, o'z vazifalarini amalga oshirish doirasida, quyidagilar talab etiladi:

a) Bankning strategik maqsadlari, biznes-rejasi va korporativ boshqaruvga oid siyosatda belgilangan vazifalarni amalga oshirish;

b) Bank tashkiliy tuzilmasining barcha darajalarida Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatlar, tartiblar va lavozim yo'riqnomalariga rioya etishi yuzasidan samarali monitoring tizimini o'rnatish va davriy ravishda ushbu tizim samaradorligini tekshirish;

v) Bank boshqaruvi qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborotning tegishli tarzda tayyorlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlovchi ishonchli axborot tizimlarini

oʻrnatish;

g) biznes-reja koʻrsatkichlari va Bank strategiyasi bajarilishini baholash imkonini beruvchi, oʻz ichida moliyaviy va boshqa faoliyatning amaldagi natijalarini aks ettirgan hisobotlarning oʻz vaqtida Bankning kuzatuv kengashiga taqdim etilishini taʼminlash;

d) Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki bunday holat yuz berishi xavfi hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va risk-appetitdagi oʻzgarishlar, tavakkalchilik chegaralari (limiti) va prudensial talablar buzilishi, ichki nazoratdagi xatoliklar, huquqiy yoki tartibga solish bilan bogʻliq muammolar yuzasidan kechiktirilmagan tarzda Bankning kuzatuv kengashiga xabar berish;

e) Bankni boshqarishning tegishli va ochiq tashkiliy tuzilmasini, shuningdek, oʻz vakolatlari doirasida bank xodimlari oʻrtasida vakolatlar va majburiyatlar taqsimlanishini taʼminlash;

yo) Bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

j) Bank xodimlarini, jumladan, Bank boshqaruvi aʼzolari va muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va boʻshatish, ular ish joyining oʻzgartirilishi (rotatsiyasi) va lavozim boʻyicha koʻtarilish, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish tartibini ishlab chiqish, shuningdek, Bank xodimlari oʻz majburiyatlari, odob-ahloq qoidalarini buzgan hollarda ularga nisbatan choralar koʻrish;

z) Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Bank ustavida belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

*(Bank aksiyadorlari umumiy yigʻilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan roʻyxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

25. Bank boshqaruvi aʼzolari Bank manfaatlari yoʻlida vijdonan va oqilona harakat qilishga majbur boʻlib, ular quyidagi fidutsiar majburiyatlarga rioya etishlari lozim:

a) Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Bank ustavi hamda Bank aksiyadorlari umumiy yigʻilishi va Bankning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini oʻz vakolatlari doirasida bajarish;

b) oʻzlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun oʻz vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

v) zarur va oshkora maʼlumotlarni belgilangan muddatda olish, ular bilan bogʻliq tegishli chora-tadbirlarni koʻrish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

g) manfaatlar toʻqnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

d) Bankni boshqarish organlari, shu jumladan, Bank aksiyadorlari umumiy yigʻilishi va

Bankning kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

e) benuqson ishchanlik obro‘sigga ega bo‘lish.

*(Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining 2020 yil 25 sentabrdagi 52-son qarori bilan tasdiqlangan va 570-son bilan ro‘yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

#### **7-§. Bank boshqaruvi a‘zolarining javobgarligi**

26. Bank boshqaruvi a‘zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Bank manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi lozim.

27. Sud Bank boshqaruvi raisi yoki a‘zosini Bankka mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, uning vakolatlari sudning qaroriga ko‘ra, unga xo‘jalik jamiyatlarida bir yildan kam bo‘lmagan muddatga rahbarlik lavozimini egallash taqiqlangan holda, tugatilishi mumkin.

Bank boshqaruvi raisi yoki a‘zosi Bankka chalg‘ituvchi axborot yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etganligi yoxud o‘zi yoki o‘z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) yirik bitim tuzish va (yoki) affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

#### **8-§. Yakuniy qoidalar**

28. Bank boshqaruvining qarori va materiallari, shuningdek uning a‘zolarining fikrlari qat’iy sir tutiladi va Bank boshqaruvi ruxsatisiz rasman oshkor etilmaydi.

29. Bank boshqaruvi majlisiga taklif etilgan shaxs sir tutiladigan ma’lumotni oshkor qilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida shaxsan javob beradi.

**Boshqaruv raisi**

**S.Normuxamedov**